

**SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR SHAXSIGA
YONDASHUV**

Nozimova Oyshaxon Abdulhamid qizi
*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti,
Tarix yo'nalishi 402-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga bo'lgan yondashuvning mafkuraviy va siyosiy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Sovet davlati tarixiy shaxslar haqidagi qarashlarni qanday qilib o'z mafkurasi asosida shakllantirgani, Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati qanday soxtalashtirilgani ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, mustaqillikdan so'ng Temur shaxsiga nisbatan tarixiy adolat tiklangani va yangi yondashuvlar shakllangani haqida ham fikr yuritadi.

Kirish: Har bir davrda shaxslar rolini baholashda davr mafkurasi va siyosiy tuzum muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, tarixiy shaxslarning ilmiy-nazariy baholanishi hukmron tuzum tomonidan shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Amir Temur siymosiga bo'lgan munosabat Sovet tarixshunosligida turlicha yondashuvlar asosida ifoda etilgan bo'lib, bu jarayonda siyosiy mafkura ustuvorlik qilgan. Mazkur maqolada Sovet tarixshunosligida Amir Temur shaxsining qanday talqin qilingani, bu yondashuvning sabablari va oqibatlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilib o'tamiz. Sovet davrida tarixshunoslik marksistik-lenincha mafkura asosida olib borilgan bo'lib, har qanday tarixiy voqea va shaxslar bu mafkura asosida baholangan. Shu sababli Amir Temur kabi yirik sarkarda va davlat arbobining faoliyati ham ko'pincha biryoqlama, tanqidiy va salbiy talqinda yoritilgan. Sovet tarixshunosligida Amir Temur ko'pincha "feodal zolim", "bosqinchilik siyosatini yuritgan harbiy sarkarda" sifatida tasvirlangan. U asos solgan Temuriylar davlati esa "feodal-reksion davlat" deb talqin etilgan. Bu yondashuv, ayniqsa 1930–1970-yillar oralig'ida kuchli bo'lgan. Tarixiy haqiqatga ko'ra, Amir Temur o'z davrining eng kuchli davlat arbobi bo'lib, siyosiy markazlashgan davlat tuzishga, xalqaro savdo va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Biroq Sovet tarixshunosligida bu jihatlar ko'pincha chetlab o'tilgan yoki inkor etilgan. Masalan, mashhur sovet tarixchilari B. G. Gafurov, V. V. Bartold kabi olimlarning ayrim asarlarida Temurning harbiy yurishlari tanqidiy baholangan bo'lsa-da, uning davlat siyosatidagi ijobiy ishlari yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, Temuriylar davrining ilm-fan va madaniyatdagi yutuqlari marksistik tarixshunoslikda ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Haqiqatan ham o'sha davr mafkurasi shuni talab qilganki, xalqni ongini oshiruvchi, o'zligini anglatuvchi har qanday fikrdan uzoq tutgan. Amir Temur va uning shaxsiyati ham shunday mavzulardan biri sifatida

qaralgan. Shuning uchun ham uni qo'nxo'r, kallakesar sifatida o'sha davr mafkurasi bn maktab va oliy o'quv yurtlarida o'qitishgan, o'sayotgan yoshlariga shu tarzda vatanparvarlik ruxini sindirishgan. Qadimdan O'rta Osiyo hudidi va uning aholisi Rossiya hududiga qaram va unga tegishli bo'lgan degan narsani uqtirishga harakat qilishgan. Bundan tashqari o'sha paytda arxiv malumotlarining Amir Temur va Temuriylarga aloqador qismi qat'iy nazorat qilinib undan foydalanishga qo'yishmagan. Agar foydalanish mumkin bo'lgan holatlarda ham cheklangan holatda informatsiyalar yeg'ilgan va doimiy nazoratda bo'lgan. Sovet tuzumining noxolis siyosati Stalin vafotidan keyin ham davom etadi. 1960-yillarda ham o'zbek bo'ladimi yoki boshqa millat vakili, o'z tarixi va milliy qahramonlari haqida hech narsa yoza olmasdi.

Amir Temur va uning shaxsiyatini qo'rqmasdan himoya qilgan shaxslardan bu Ibrohim Mo'minovdir. U o'z davrining eng shijoatli va ilimli insoni bo'lib, sohibqiron bobomiz nomini oqlashga harajat qildi va buni o'z uddasidan chiqa oldi ham. Ana shunday ishlardan biri o'zbek akademik olimi, 1960-yillarning ikkinchi yarmida O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh muharriri bo'lgan, O'zbekistonda tarix va falsafa ilmida juda katta ishlar qilgan Ibrohim Mo'minov bilan sodir bo'ladi. Olim 1968 yilda "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli risola yozib chop ettiradi va sovet tuzumining tazyiqlari ostida qoladi. Ko'p o'tmay uni ensiklopediya bosh muharrirligidan bo'shatishadi. Olim uchun sinovli kunlar boshlanadi. Oxir-oqibat Ibrohim Mo'minov vafot etadi.

Sovet O'zbekistoni tarixshunosligida ham Amir Temur mavzusi ancha muddat cheklangan. Mahalliy tarixchilarga Temur va Temuriylarga ijobiy yondashish imkoniyati deyarli berilmagan. Faoliyatlarining ilmiy, ma'naviy va madaniy jihatlarini o'rganishga uringan ba'zi tadqiqotchilar tanqidga uchragan yoki cheklovlariga duch kelgan. Faqatgina 1980-yillarning oxirida, ya'ni Sovet Ittifoqida "qayta qurish" (perestroyka) siyosati boshlanganidan so'ng Amir Temurga nisbatan tarixiy yondashuvda nisbiy ijobiylik paydo bo'la boshladi. Bu davrda ayrim olimlar, xususan, Sh. Vohidov, M. Sodiqov, R. Sagdullayev kabilar Amir Temur shaxsini tarixiy haqiqat asosida o'rganishga harakat qila boshladilar. Sovet Ittifoqi parchalangach, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur siymosi tarixiy adolat asosida qayta baholandi. 1996-yilda O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilinib, Temur shaxsining milliy ong va tarixdagi o'rni qayta tiklandi. Bu esa uzoq yillar davomida davom etgan Sovet davridagi tarixiy salbiy stereotiplarning yengilishini anglatadi. Sohibqiron Amir Temurning benazir aql-zakovati va yuksak tafakkuri, o'z xalqining axloq-odob haqidagi qarashlarini mukammal bilgan inson bo'lganligini ko'rsatadi. Amir Temur shaxsi, ma'naviyati, axloqi bilan bog'liq nazariy masalalarni ilmiy o'rganish zaruriyati uning xalq, davlat, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi axloqiy tamoyillarni tahlili bilan bog'liq. Amir Temur shaxsi va faoliyatida adolatparvarlik muhim o'rin tutadi.

Xususan, “Temur tuzuklari”ning milliy va umumbashariy ahamiyat kasb etishi uning yuksak axloqiy tamoyillarga asoslanganligi ham aynan Sohibqironning adolatga boʻlgan munosabati bilan belgilanadi. Bundan tashqari, adolatparvarlik Amir Temur faoliyatining axloqiy mezonini sifatida boʻrtib koʻzga tashlanadi.

Xulosa

Sovet davri tarixshunosligida Amir Temurga boʻlgan yondashuv hukmron mafkuraviy talablardan kelib chiqib, biryoqlama va salbiy boʻlgan. Bu tarixshunoslikda shaxsiy yondashuvdan koʻra siyosiy ideologiyaga koʻproq tayanilganini koʻrsatadi. Biroq, mustaqillikdan soʻng, tarixiy haqiqat tiklandi va Amir Temur siymosi oʻz xalqining faxrli oʻtmishiga asoslangan yodgor shaxs sifatida eʼtirof etila boshlandi. Bugungi avlod uchun Sohibqiron shaxsidagi halollik, jasorat, farosat, matonat, qatʼiyat kabi koʻplab axloqiy fazilatlar mavjudki, uni oʻrganish, amal qilishni foydasi va hikmati koʻp. Ayniqsa, tarixiy shaxslar xarakteridagi vatanparvarlik fazilatini hamda buyuk shaxslar hayotidagi davrlar sinovidan oʻtgan voqeliklarni tadqiq etish har qaysi davrda ham ahamiyatli hisoblangan. Chunonchi, Amir Temurning vatanparvarlik gʻoyalari, qarashlari va daʼvatlarini tahlil qilish axloq falsafasi rivoji bilan bogʻliq muhim ilmiy xulosalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida. 1- qism. T. “Sharq”, 2000.
2. Oʻzbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2 - qism. T. “Sharq”, 2000.
3. S.A.Toshtemirov “Tarixshunoslik” Toshkent-2022. 267-b
4. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. Аскарлов
5. А.А. Узбек халкининг этногенези ва этник тарихи. - Тошкент: Университет, 2007.
6. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Л.,1927.
7. Бойназаров Ф.Йрта Осиёнинг антик даври. Т., уқитувчи 1991.